



## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

---

### BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVNING AYRIM MASALALARI

*Ziyayev A.*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi dotsenti*

**Tayanch so'zlar:** boshlag'ich ta'lim, innovatsion yondashuv, usul, mustaqil fikrlash, texnologiya, o'qitish.

**Ключевые слова:** начальное образование, инновационный подход, метод, самостоятельное мышление, технология, обучение.

**Key words:** primary education, innovative approach, method, independent thinking, technology, teaching.

**Резюме:**

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida joriy etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash, amaliy yaratuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarni qo'llash zaruratiga oid qarashlar, metodik tavsiyalar yoritilgan.

**Резюме:**

В данной статье освещены взгляды на необходимость внедрения содержания начального образования на основе инновационных подходов, необходимость использования современных образовательных технологий в формировании навыков самостоятельного мышления и практического творчества учащихся начальных классов, а также методические рекомендации.

**Summary:**

This article highlights views on the need to implement the content of primary education based on innovative approaches, the need to use modern educational technologies in the formation of independent thinking skills and practical creativity of primary school students, as well as methodological recommendations.

Milliy ta'lim mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida joriy etish, ilg'or xalqaro va xorijiy tajribalar, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish, o'quv-tarbiya jarayoniga madaniy savodxonlik, ijodkorlik va boshqa kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion shakllar va metodlarni joriy etish, yoshlarning turli vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarini mustaqil hal



etishni o'rgatishga qaratilgan ta'limning motivasion va innovasion yondashuv ta'imning sifat va samaradorligini oshirishdagi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Fan va texnika taraqqiyotining jadallashuvi innovasion texnologiyalarni ta'limga keng joriy etilishi bilan bog'liq jarayon mahsulidir. Bugungi dunyodagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o'z navbatida, ta'lim sohasiga nisbatan yangi innovatsion yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy tadqiqot maqsadi boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuv mohiyati, uning afzalliklari, zamonaviy ta'limni joriy etishdagi o'rni va ahamiyatini yoritishdan iboratdir.

Bu borada ko'pincha o'qituvchilarimiz innovatsion ta'lim jarayonida qo'llanadigan texnologiyalar bilan bog'liq ko'plab bir-birini taqozo qiladigan tushunchalar mohiyatini bilishlari, farqlashlari va to'g'ri qo'llashlari uchun ular mazmunini keltirish maqsadga muvofiq.

**Texnologiya** (yunon tilidan. *Techné* – “san'at”, “mahorat”, “qobiliyat”; logos - "so'z", "fikir", "ma'no", "tushuncha") - kerakli natijaga erishish uchun metod va vositalar to'plami; keng ma'noda ilmiy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilish uchun qo'llash. Texnologiya ish metodlarini, uning tartibini, harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi.

**Pedagogik texnologiya** – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqadning natijalanishini pedagogik faoliyat jarayonining mazmuni. Pedagogik texnologiyaning asosiy mezonlari: konseptuallik, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik, qayta aloqa muhim sanaladi.

**O'qitish texnologiyasi** – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlikdir.

Metod so'zi yunoncha “tadqiqot”, “maqsadga erishish yo'li” deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan.

**Metod** – umumiy ma'noda maqsadga erishish yo'li, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat.

**Ta'lim metodlari** deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etishga doir o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari yig'indisi tushuniladi.

**Ta'lim usuli** – o‘qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usullar yordamida faqat o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

**Interfaol metod** – o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlari majmui.

**Metodika** – qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik harakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi.

**“Metodika”** tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liqlikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi.[4]

Innovatsiya – (inglizcha “Innovation” – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Pedagogik yangilik esa pedagogik faoliyatda ilgari ta’lim jarayonida noma’lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta’lim va tarbiyaning nazariy va amaliy jihatini boyitish va uni rivojlantirish vositasidir.

Innovatsion ta’lim tizimi hozirgi davrda ta’lim sohasining barcha jabhalarida mutaxassislarning e’tiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta’limiy ahamiyatini anglagan pedagoglar shu bois an’anaviy ta’limda ilg‘or innovatsiyalardan foydalanib ta’limni tashkillashtirayaptilar. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan mazkur yangi ta’lim shaklining asosiy vazifasi hukmron bo‘lib turgan butun o‘quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o‘zlashtirishdir. Innovatsiyaning asosiy tushunchalari sifatida yangilik, g‘oya, vosita (yangi metod)larni olish mumkin. [11]

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda ham qator interfaol na’lim metodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Boshlang‘ich ta’limda ham “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Sinkveyn”, “BBB”, “Beshinchisi ortiqcha”, “6x6x6”, “Bahsmunozara”, “Rolli o‘yin”, FSMU, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.[5]

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.



Bugungi kunda boshlang'ich ta'limdan boshlab bolalarda ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirib borishda masalan TRIZ texnologiyalarini qo'llash ham samarali natijalar kafolati hisoblanadi.

**TRIZ** (теория решения изобретательских задач)-ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi. **TRIZ** - bu ahamiyatsiz bo'lmagan muammolarga tezda yechim topishga yordam beradigan fikrlash tizimidir.[5]

Boshlang'ich sinflarda TRIZ pedagogik texnologiyasi ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beruvchi texnologiyalardan biridir. Biz uning yordamida hal qilinishi mumkin bo'lgan asosiy vazifalarni sanab o'tamiz yordam:

- maktab o'quvchilarining mustaqilligini rivojlantirish;
- atrofdagi tirik dunyoga to'g'ri munosabatni shakllantirish;
- qobiliyatingizga ishonchni rivojlantiring;
- bolalar umumiy ta'limini yaxshilash;
- tahlil qilish, amaliy, ixtirochilik, ijtimoiy muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish;
- ta'lim jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- diqqat, mantiq, xotira, nutq, aql, ijodiy tasavvurni rivojlantiring.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqib rolli o'yinlar texnologiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Ular, ayniqsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun dolzarbdir. Masalan, "Navro'z"ni nishonlash bilan bog'liq guruh loyihasini tashkil qilishda o'qituvchi o'z o'quvchilarini "Navro'z" bayrami uchun kichik spektakl bilan chiqishga taklif qiladi, bunda har bir bola muayyan rol egasi bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda o'yin pedagogik texnologiyalari yosh avlodning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular maktab o'quvchilarida mas'uliyat, mustaqillik, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Rolli o'yinda har bir bola muayyan funktsiyalarga ega bo'lib, butun jamoaning muvaffaqiyati ularni bajarish darajasiga bog'liq.

Shuningdek, rolli o'yinlar darslarni o'tkazishda ham mos keladi. Misol uchun, adabiy asarni o'qiyotganda o'quvchilar rollarga bo'linadi. O'qish go'zal bo'lishi uchun har bir bola matniga e'tibor qiladi, buning natijasida diqqat va xotira faollashadi, mantiqiy fikrlash shakllanadi, nutqi yaxshilanadi.

Pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tiladigan darslar tashkiliy usullari, foydalaniladigan metodlariga ko'ra o'quvchi yosh xususiyatlariga ham mos kelishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'lsa, o'quvchi mazkur mavzuni tushinishda qiynalmaydi. Bu esa o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini



uyg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyati asosiga quriladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakam ehtiros bo'ladi. Boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darslarda faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Innovatsion texnologiyalar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmazlik kerak.

Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbiy faoliyatida maxsus ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanish malakalariga ega bo'lishligi muhim ahamiyatga egadir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgaralar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

#### Adabiyotlar:

1. Sh, Abduraximov. "Issues of formation of the center for mastering foreign educational programs that form civil education in students in the system of primary education in uzbekistan." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).
2. Ziyayev, A. N. "Primary education and aesthetic sense training." *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.*
3. Ziyayev, A. N. "Pedagogical aspects of the use of educational values in the spiritual development of students." *International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 86-88.*



4. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Правила использования интерактивных методов обучения." Conferencea (2023): 143-148.
5. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Педагогические аспекты использования мыслей мыслителей в эстетическом воспитании учащихся." E Conference Zone. 2023.
6. Ziyayev, A. N. "The main areas of activity of the class leader in the education of the necessary skills for an independent life in students." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 953-956.
7. Ziyayev, A. N. "Some issues of the formation of skills of a healthy lifestyle in students in the process of labor education." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 851-853.
8. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Роль национальных ценностей в воспитании гражданина." Ученый XXI века (2017): 78
9. Ziyayev, A. I. "National and cultural peculiarities of english, russian and uzbek phraseological intensifiers." International scientific journal 40.34 (2016): 65-71.
10. Ziyaev, A. I., and Z. J. Aliyeva. "Integration internet technologies in the educational process of teaching foreign languages." Вестник магистратуры 5-4 (128) (2022): 140-142.
11. Haydarova X. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuv. International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey. August 15th 2022. 18-21 betlar.